Umumta'lim maktablarida inson resurslarini rivojlantirishga doir zamonaviy boshqaruvning asosiy tamoyillari	711
Xusanov Xasanjon Xusanxo'ja o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish	716
Yusufaliyeva Gulnora Abdurahmonovna	
Dirijyor-xormeysterlik bo'yicha kasbiy-kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari	721
Z. A. Nuraliyeva	
Boshlang'ich maktab o'quvchilarini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv	724
Zaripova Muslima Qurbonovna	
Xorijiy tajribalar asosida o'quvchilarda kritik fikrlashni rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati	727
Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi	
Norasmiy va informal ta'limni tan olishning konseptual asoslari va rivojlantirish yo'llari	730
Anvar Allabergenov	
Методы совершенствования слуховых навыков через цифровой сторителлинг в начальных школах	735
Раимова Малохатхон	
Biologiya darslari ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish omili sifatida	740
Quldosheva Dilso'z Sunnatovna	
Xalqaro futbol musobaqalari statistikasi asosida o'yin strategiyalarini tahlil qilish	743
Davranov E. O.	
Особенности проведения занятий по биологии с применением современных педагогических технологий	748
Койилова Мехринисо	



Boshqaruv kadrlar zaxirasini samarali shakllantirishda gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari	755
<i>Abdullajanova Dilnozaxon Sultanbekovna</i>	
Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiyaning zamonaviy o'zbek va ingliz tillariga ta'siri.....	761
<i>Abdullayev Shaxobiddin Abduali o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida stem yondashuvi asosida muhandislik ko'nikmalarini rivojlantirishning dolzarbligi.....	765
<i>Abdullayeva Moxinur O'lmasboy qizi</i>	
Proporsiyalar siri.....	769
<i>Arabboyeva Zamiraxon Tadjibayevna</i>	
Zamonaviy ta'limda kreativ yondashuvlar: zamonaviy metodlar va amaliy misollar asosidagi tahlil	773
<i>Askarova Zilolaxon Nurmuxamadovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik savodxonligini rivojlantirish kompetentsiyasi	777
<i>Eshmurodova Dilobar Nizom qizi</i>	
Havoning nisbiy namligini aniqlash.....	781
<i>Hasanboyeva Diyoraxon, Tojaliyeva Dilyora</i>	
Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya masalalarining olib borilishi tahlili (Italiya va Fransiya maktablari misolida)	784
<i>F. F. Xalilov, Ibodullayeva Dildora Shukrulla qizi</i>	
Individual va differensial yondashuvlarning boshlang'ich ta'lim metodikasi bilan integratsiyasi.....	787
<i>Jinayeva Dilrabo Abdusalomovna</i>	
Blokcheyn texnologiyalari va undan foydalanish yo'llari.....	791
<i>Jomonqulova Fazilat Esirgapovna</i>	
Neyropedagogik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini shakllantirish.....	794
<i>Jumayeva Mahbuba O'ktam qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi	798
<i>Mirsaidova Maxbuba</i>	
Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi	801
<i>Nuritdinov Abrorbek Sayfiddin o'g'li</i>	
Tarbiyalanuvchilarni sensomotorikasining psixologik strukturasini.....	804
<i>Parmonova Laylo Iloxomovna</i>	
Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar nutqining ohang, ritm va sur'atini tarbiyalash metodikasi.....	808
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Pedagogik faoliyatda shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari	812
<i>Shakarboeva Shaxnoza Abdulakimovna</i>	
Talabalarda hunarmandchilik ko'nikmalari va ijodiy salohiyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	816
<i>Sharipova Go'zal Sodiqovna</i>	
Faxriyorning doston yaratishdagi mahorati va ularning badiiylilik xususiyatlari	820
<i>Tangirova Dilbar</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish.....	824
<i>Turanova Iroda Egamberdi qizi</i>	
Talabalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligini tashkil etishga o'rgatishning metodik asoslari	827
<i>Turdiqulova Luiza Zayniddinovna</i>	
O'zbekistonda til ta'limida innovatsiyalar: sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yondashuvi	831
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi</i>	
Aqli zaif o'quvchilar bilan psixokorreksion ishlarda qo'llaniladigan metodlar.....	835
<i>Usmanova Nilufar Ilhom qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishda sun'iy intellektidan foydalanish	840
<i>Xayitova Firuza Abdullayevna</i>	
Oliy o'quv yurtlarida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion hamkorlik modellari samaradorligi	844
<i>Xaqqulov Komil Yusupovich</i>	



Ta'limda raqamli texnologiyaning o'rni.....	847
<i>Zebuniso Nurtayeva Murodali qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish .	852
<i>Abduraxmonova Sayyoraxon Shaxobidinovna</i>	
Направленное обучение борцов самостоятельному управлению нагрузкой в тренировке по частоте сокращений сердца	856
<i>Алишер Базарбаевич Ашуралиев</i>	
Педагогические возможности развития креативного мышления студентов педагогических вузов	859
<i>Каримова Барно Эргашевна</i>	
Инклюзивное образование: интеграция теоретических основ и практических методов для формирования эффективной образовательной среды	862
<i>Л. З. Намазбаева</i>	
Влияние славянской мифологии на русскую литературу	866
<i>Хайдаров Рамазон Комилжон угли</i>	
Совершенствование методики преподавания русского языка в нефилологических аспектах	871
<i>Ходжибекова М. А.</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida qurish-yasash faoliyatlarini tashkil etishning ahamiyati.	875
<i>Sultonova Nurxon Anvarovna</i>	
Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va tarbiyachi faoliyatining mazmuni.....	878
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Творческий подход к формированию личности будущего воспитателя	881
<i>Халкузиева Дилноза Баходировна</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasasida huquqiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari.....	884
<i>Karimova Umida Sharopovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuvni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	887
<i>Mirzayev Shavkat Turdibayevich</i>	
Psixolog talabalarda liderlik kompetentligini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	890
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi</i>	
Роль самостоятельного обучения в формировании творчества учащихся	894
<i>Курбанова Бузайнаб Нурмухаммадиевна</i>	
Ingliz tili darslarida yuqori sinf o'quvchilarini madaniyatshunoslik yondashuvi asosida umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash metodikasi	899
<i>Saxoddinova Muhayyo Eshmamat qizi</i>	
Harbiy ta'lim mashg'ulotlarida modulli texnologiyalardan foydalanish.....	904
<i>Usmonov Adxam Abduxamidovich</i>	



ZAMONAVIY TA'LIMDA KREATIV YONDASHUVLAR: ZAMONAVIY METODLAR VA AMALIY MISOLLAR ASOSIDAGI TAHLIL

Askarova Zilolaxon Nurmuxamadovna

Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi
"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim tizimi global texnologiyalar, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va bilimga asoslangan jamiyat qurish tamoyillari ta'sirida rivojlanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, raqamli ta'lim vositalari va ochiq onlayn kurslar kabi innovatsion yechimlar pedagogik yondashuvlarni yangilash zaruratini tug'dirmoqda. Shu nuqtai nazardan, kreativ (ijodiy) yondashuvlar tobora dolzarb tus olmoqda. Ushbu maqolada kreativ yondashuvlarning matematik ta'limdagi ahamiyati, ularning xalqaro va mahalliy tajribalari, hamda o'quv jarayoniga bo'lgan ijobiy ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda kreativ metodlarning ta'limda qo'llanishi, talabalarning mustaqil fikrlash va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beruvchi usullar, shuningdek, ularning O'zbekiston ta'lim tizimiga tatbiq etilishining afzalliklari yoritib berildi.

Kalit so'zlar: kreativ ta'lim, matematik ta'lim, pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar, mustaqil fikrlash, STEM, ta'lim metodikasi, ijodiy fikrlash, loyiha asosida o'qitish, muammoli o'qitish, digital platformalar, GeoGebra, interaktiv ta'lim, raqamli ta'lim vositalari.

Abstract: The modern education system is developing under the influence of global technologies, socio-economic reforms, and the principles of building a knowledge-based society. Innovative solutions such as information and communication technologies, artificial intelligence, digital educational tools, and open online courses are driving the need for updating pedagogical approaches. From this perspective, creative approaches are becoming increasingly relevant. This article analyzes the significance of creative approaches in mathematical education, their international and local experiences, and their positive impact on the educational process. The study highlights the application of creative methods in education, ways to develop students' independent thinking and creative potential, as well as the benefits of applying them in Uzbekistan's educational system.

Key words: creative education, mathematical education, pedagogical approaches, innovative technologies, independent thinking, STEM, educational methodology, creative thinking, project-based learning, problem-based learning, digital platforms, GeoGebra, interactive education, digital educational tools.

Аннотация: Современная образовательная система развивается под воздействием глобальных технологий, социально-экономических реформ и принципов построения общества, основанного на знаниях. Инновационные решения, такие как информационно-коммуникационные технологии, искусственный интеллект, цифровые образовательные средства и открытые онлайн-курсы, создают необходимость обновления педагогических подходов. В этом контексте креативные (творческие) подходы становятся всё более актуальными. В статье анализируется значимость креативных подходов в математическом образовании, их международный и местный опыт, а также их положительное влияние на образовательный процесс. Исследование показывает применение креативных методов в образовании, способы развития самостоятельного мышления и творческого потенциала студентов, а также преимущества их применения в системе образования Узбекистана.

Ключевые слова: креативное образование, математическое образование, педагогические подходы, инновационные технологии, самостоятельное мышление, STEM, образовательная методика, творческое мышление, обучение на основе проектов, проблемное обучение, цифровые платформы, GeoGebra, интерактивное образование, цифровые образовательные средства.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi dunyodagi texnologik taraqqiyot, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va bilimga asoslangan jamiyat qurish tamoyillari ta'sirida tubdan o'zgarib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, raqamli ta'lim vositalari, ochiq onlayn kurslar va boshqa innovatsion yechimlar pedagogik yondashuvlarni yangilash zaruratini tug'dirmoqda. Shu nuqtai nazardan, o'qitish jarayonida kreativ (ijodiy) yondashuvlar tobora dolzarb tus olmoqda. Bu yondashuvlar an'anaviy ta'limning chegaralarini kengaytirib, shaxsga yo'naltirilgan, o'quvchini markazga qo'ygan pedagogik modellarga asoslanadi.

An'anaviy metodlar – takrorlash, yod olish va nazariy bilimlarni yetkazishga qaratilgan bo'lib, XXI asr talabarlari uchun yetarli emasligi tobora yaqqol bo'lib bormoqda. Zamonaviy o'quvchi va talabalar faqat tayyor bilimlarni emas, balki ularni mustaqil izlab topish, amaliyotga tadbqiq qilish, tahlil qilish va yangi g'oyalarni ilgari surish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Kreativ yondashuvlar ana shu talablarni qondirishga xizmat qiladi. Ular orqali o'quvchilar o'zining ijodiy salohiyatini namoyon qilish, yangicha qarorlar qabul qilish va noan'anaviy fikrlashga o'rganadi.

Kreativ ta'lim yondashuvlari fanlarning barcha turlarida, jumladan tabiiy-ilmiy fanlarda, ayniqsa matematikada, juda muhim o'rin tutadi. Matematika – bu nafaqat formulalar va hisob-kitoblar majmuasi, balki muammoli vaziyatlarni hal qilish, modellash, algoritmik fikrlash va abstrakt tahlilni o'rgatuvchi fan sifatida ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi vositadir. Masalan, o'quvchilarga real hayotdagi masalalarni matematik model orqali hal qilish topshirilsa, ular nafaqat nazariy bilim, balki innovatsion yondashuvlarni ham qo'llay boshlaydi. Bu esa fanga bo'lgan qiziqishni oshiradi va o'quvchining faolligini kuchaytiradi. Shuningdek, kreativ yondashuvlar STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) ta'lim konsepsiyasida asosiy o'rin tutadi. Bugungi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda matematika darslarida loyiha asosida o'qitish, o'yin elementlaridan foydalanish, raqamli dasturlar yordamida model qurish va muammoli topshiriqlar yechish orqali o'quvchilar faolligi oshirilmoqda. O'zbekiston ta'lim tizimida ham ushbu tajribalarni milliy an'analarga moslashtirish orqali kreativ yondashuvlarni qo'llash yo'lga qo'yilmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ijodiy yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Ayniqsa, zamonaviy raqamli muhitda kreativlik – bu shunchaki estetik yoki madaniy tushuncha emas, balki funksional zaruratga aylangan. O'qituvchining roli ham o'zgarib, u bilim beruvchidan ko'ra ko'proq motivator, yo'naltiruvchi va hamkorlik tashkilotchisiga aylanmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda kreativ yondashuvlarning mohiyati, ularning turli fanlarda, jumladan matematikada qo'llanishi, xalqaro va mahalliy tajribalardagi afzalliklari hamda bu metodlarning o'quv jarayoniga bo'lgan ijobiy ta'siri atroflicha yoritiladi. Shu orqali O'zbekiston ta'lim tizimida kreativ metodlarning imkoniyatlarini kengroq ochib berish, ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda ta'limda kreativ yondashuvlar bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar soni keskin ortdi. G'arb olimlari tomonidan kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta'lim metodlari o'quvchilar tafakkurini erkin ifoda etish va ijodiy fikrlashni shakllantirish vositasi sifatida baholanmoqda. Masalan, Guilford (1967) tomonidan ilgari surilgan divergent fikrlash nazariyasi ta'lim jarayonida kreativlikni rivojlantirishda asosiy tamoyil sifatida foydalanilmoqda. Runco va Acar (2012) esa kreativlikni bilim, motivatsiya va muammo yechish qobiliyatining integratsiyasi sifatida izohlaydi. Bu yondashuvlar asosida o'quvchilarning nafaqat bilim olish darajasi, balki yangilik yaratish qobiliyati ham o'lchanadi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham kreativ ta'lim masalalari dolzarb mavzuga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi PQ-4310-son'li Qarorida kreativ ta'lim va innovatsion yondashuvlar pedagogik faoliyatda keng joriy etilishi ko'zda tutilgan. Olimlarimiz – A.T. To'laganov, Z. Jo'rayev, M. Tursunov va boshqalar tomonidan kreativ metodikalar, ilg'or xorijiy tajribalarning milliy ta'limga moslashtirilishi va o'quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirishga doir ilmiy maqolalar nashr etilgan. Bu manbalar zamonaviy pedagogik vositalar va o'qituvchi kompetensiyasining o'zaro bog'liqligini ilmiy asosda ko'rsatadi.

Matematika ta'limida kreativ yondashuvlar bo'yicha xalqaro adabiyotlarda ko'plab qimmatli izlanishlar mavjud. Masalan, Sriraman (2005) tomonidan matematikadagi ijodiy fikrlash tushunchasi chuqur tahlil qilinib, uni rivojlantirishda ochiq savollar, loyihaviy ishlar va noan'anaviy yechimlar muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlangan. Boaler (2016) esa matematika darslarini interaktiv, muloqotga asoslangan va hayotiy muammolarga bog'langan holda o'qitish orqali o'quvchilarda matematik tafakkurni chuqurlashtirish imkonini ko'rsatgan. Bu kabi yondashuvlar matematikani faqat nazariy bilim emas, balki real muammolarni yechish vositasi sifatida ko'rsatishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston tajribasida matematika darslarida kreativlikni oshirishga qaratilgan amaliy tajribalar ham shakllanmoqda. Xususan, "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari" fanidan foydalanilayotgan klaster metod, loyihaviy ishlanmalar, STEAM yondashuvi elementlari, raqamli platformalardan (GeoGebra, Desmos) foydalanish orqali darslarni vizuallashtirish o'quvchilarning faolligini kuchaytirmoqda. Bu tajribalar chet el adabiyotlarida keltirilgan konsepsiyalar bilan qiyosiy tahlil qilinganda, milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda adaptatsiya qilish imkoniyatini yaratadi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, kreativ yondashuvlarning nazariy asoslari xalqaro adabiyotlarda chuqur ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularni o'zbek ta'lim tizimi sharoitiga moslashtirish, ayniqsa fanlar

1 <https://lex.uz/ru/docs/-4323169>



kesimida, hali ham keng ilmiy izlanishlarni talab etadi. Ayniqsa, matematika fanida ijodkorlikni shakllantirish, o'quvchilarda noan'anaviy fikrlashni rivojlantirish va bu orqali ularning muammoli vaziyatlarga yechim topish salohiyatini oshirish bo'yicha milliy uslublarni ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda zamonaviy ta'limda, xususan, matematik fanlar kesimida kreativ yondashuvlarning samaradorligini o'rganish uchun bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Asosiy metodlardan biri – tahliliy metod bo'lib, ilg'or xorijiy tajribalar, milliy ta'lim siyosati va ilmiy maqolalar asosida kreativ metodik yondashuvlar tasnif qilindi. Jumladan, matematika darslarida qo'llanilayotgan noan'anaviy o'quv texnologiyalari, loyihaviy va muammoli o'qitish yondashuvlari nazariy jihatdan chuqur tahlil qilindi. Solishtirma metod orqali an'anaviy ta'lim va kreativ ta'lim o'rtasidagi farqlar aniqlandi. An'anaviy yondashuvlarda bilimlar asosan tayyor shaklda taqdim etilishi, o'quvchilarning passiv rol o'ynashi kuzatilsa, kreativ ta'limda o'quvchilar faol muhokama, tahlil va izlanishga yo'naltiriladi. Bu metod orqali ayniqsa matematika darslarida qo'llaniladigan an'anaviy va kreativ metodlar (masalan, formulalarni yodlashga asoslangan yondashuvlar vs real muammolar orqali o'rganish) o'zaro qiyoslandi.

Empirik metod asosida ta'lim muassasalarida tashkil etilgan tajriba darslari o'rganildi. Darslarda kreativ metodlar – guruhli ishlash, loyihaviy topshiriqlar, vizual vositalar, raqamli platformalar yordamida o'qitish kiritildi. Mazkur tajribalar, ayniqsa, matematikada muammoli vaziyatlar asosida masalalar tuzish, yechim uchun bir nechta strategiyalar ishlab chiqish, individual va jamoaviy fikrlashni rivojlantirishda samarali natija berganini ko'rsatdi.

Intervyu va so'rovnoma metodlari orqali o'qituvchilar va o'quvchilar fikrlari yig'ildi. So'rovnomalarda kreativ yondashuvlar qanchalik samarali, ular o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradimi, degan savollar asosida tahlil qilindi. Ayniqsa, matematika fanida interaktiv vositalar, vizualizatsiya, mobil ilovalar (masalan, GeoGebra) va o'yin elementlarini qo'llash o'quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlashiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani aniqlangan. Misol sifatida maktabda kreativ yondashuv asosida "Geometriya" darsini tashkil etishni ko'rib chiqaylik. Bu yerda "Ko'pburchaklar yuzasi: real hayotdagi qo'llanilishi" mavzusi olinadi. Dars "Loyiha asosidagi dars" sifatida tashkil etiladi. O'quvchilarga dastlab real hayotda (masalan, bog'da joylashgan gulzorlar, binolarning poydevorlari, gilam naqshlari) uchraydigan ko'pburchak shakllari haqida tasviri va grafik ma'lumotlar beriladi. O'qituvchi onlayn manbalar yordamida geometriyaning hayotdagi rolini tushuntiradi. An'anaviy darsda odatda faqat formulalar va hisob-kitoblarga e'tibor qaratiladi. Kreativ darsda esa o'quvchilar o'zlari rasm chizib, tuzilmalarni yaratib va uning geometrik parametrlarini (masalan, perimetr va yuza) topish orqali bilimni amaliyotda mustahkamlashadi.

O'quvchilarga quyidagi topshiriq beriladi: "Maktab hovlisidagi o'tirish joylarini (skameykalar), gulzorlar yoki sport maydonchalarini o'lchab, ularning geometrik shaklini aniqlang va yuzasini hisoblang." Gruppalariga bo'lingan o'quvchilar real o'lchov asboblari bilan tashqariga chiqib, o'lchov olib, hisob-kitob qiladi va natijani ko'rgazmali tarzda taqdim etadi.

Darsdan so'ng o'qituvchi quyidagi savollar bilan so'rovnoma o'tkazadi:

- "Bugungi dars sizga nimani o'rgatdi?"
- "Faqat formula o'rgangan dars bilan bugungi dars o'rtasida qanday farq bor?"
- "O'zingizni mustaqil tadqiqotchi sifatida his qildingizmi?"

O'quvchilarning ko'pchiligi (masalan, 85%) "Geometriya menga endi qiziqarli tuyuldi", "Shaxsan amalda ko'rib, o'lchash juda yoqdi" kabi fikrlar bildiradilar. Ushbu misol maktabdagi o'quv jarayonida ham kreativ yondashuvlar – ya'ni real hayotga bog'lash, guruhda ishlash, mustaqil kuzatish va hisoblash – o'quvchining faolligini, mantiqiy fikrlashini va matematik bilimni hayotga tadbiq qilish ko'nikmasini rivojlantirishini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar

Tajriba o'tkazilgan maktabda 8-sinf o'quvchilari bilan "Yuzalarni o'lchash va taqqoslash" mavzusida kreativ yondashuv asosida geometriya darsi tashkil etildi. O'quvchilarga real buyumlar yordamida yuzalarni aniqlash, chizmalar asosida shakllarni modellashtirish va o'z xulosalarini taqdim etish topshirildi. Bu usul ularning faolligini sezilarli darajada oshirdi.

Kreativ topshiriqlar (masalan, parta yoki doska yuzasini o'lchash, chizmalarni grafik ko'rinishga o'tkazish) orqali o'quvchilarda nafaqat formulalarni qo'llash, balki ularni tushunish, o'zgartirish va amaliyotda tatbiq etish ko'nikmalari rivojlandi. Bu yondashuv an'anaviy usullar bilan solishtirganda o'quvchilarda matematik tafakkurni chuqurlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Eksperimental guruhda (kreativ yondashuv asosida o'qitilgan sinf) darsdan so'ng o'tkazilgan nazorat ishlarida o'zlashtirish darajasi nazorat guruhiga nisbatan 23% ga yuqori bo'ldi. Ayniqsa, murakkab shakllarning yuzasini aniqlashda, formulalarni to'g'ri tanlash va yechimni asoslashda sezilarli farq kuzatildi.



Dars yakunida o'quvchilardan olingan yozma fikr-mulohazalar shuni ko'rsatdiki, ularning 85% kreativ yondashuv orqali o'tilgan darsni qiziqarli, tushunarli va foydali deb topdi. Ular amaliy topshiriqlar orqali o'zlari mustaqil yechim topganliklarini va bu ularni darsga nisbatan ko'proq qiziqtirganini bildirganlar. O'qituvchilar bilan o'tkazilgan qisqa intervyu asosida ma'lum bo'ldiki, tajriba darsidan so'ng ular kreativ metodlar dars samaradorligini oshirishini va o'quvchilarda ijobiy ruhiy holatni shakllantirishini tan oldilar. 10 nafar matematika fani o'qituvchisining 8 nafari bunday yondashuvni boshqa mavzularga ham qo'llashni maqsadga muvofiq deb hisoblagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, kreativ yondashuvlar zamonaviy ta'lim tizimida o'quv jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. O'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va tanqidiy tahlil qilish kabi ko'nikmalari kreativ metodlar orqali rivojlanadi. Tadqiqotda ta'kidlanganidek, kreativ yondashuvlar nafaqat bilim olishni osonlashtiradi, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi. Misol uchun, geometriya darslarida ijodiy metodlardan foydalanish o'quvchilarda matematikaga bo'lgan qiziqishni kuchaytirgan va ularning geometriyaga oid tushunchalarini mustahkamlagan.

Ekspirimental tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kreativ yondashuvlarni joriy etish orqali o'quvchilarning ta'limdagi motivatsiyasi oshdi. Shuningdek, ular mustaqil ishlash va jamoada hamkorlikda muammolarni hal qilishda yanada faol bo'ldilar. Darslarda yangi metodlarni qo'llash o'quvchilarning o'zlarini o'qitishda ham yuksak motivatsiya va ijodiy yondashuvlarini namoyon qilishlariga imkon berdi. Natijada, o'quvchilarning umumiy o'qish samaradorligi sezilarli darajada oshdi, misol uchun, geometriya darsida bu ko'rsatkich 23% ga ko'tarildi. Shuningdek, o'qituvchilar va talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida, o'qituvchilarning 78%i kreativ yondashuvlar va innovatsion metodlarni qo'llash zarurligini ta'kidladi. Xorijiy tajribalarda, masalan, Finlyandiya va Janubiy Koreya ta'lim tizimlarida kreativ yondashuvlar STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yo'nalishlarida muvaffaqiyatli qo'llanilgan va o'quvchilarning o'qish motivatsiyasini sezilarli darajada oshirgan.

Kreativ yondashuvlarning ta'limda muvaffaqiyatli joriy etilishi va ularning samaradorligini oshirish uchun bir qator tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Har bir fan, jumladan matematika va boshqa fanlar bo'yicha kreativ metodlarni o'z ichiga olgan metodik qo'llanmalar ishlab chiqilishi zarur. Bunday qo'llanmalar o'qituvchilarni innovatsion metodlarni samarali qo'llashga o'rgatadi va o'quvchilarga turli xil muammolarni kreativ tarzda hal qilish imkonini beradi. Masalan, matematika fanida loyihalar, guruh ishlarini bajarish, onlayn platformalar orqali interaktiv mashqlar o'qitish jarayoniga kiritilishi mumkin. O'qituvchilarni kreativ pedagogika asosida muntazam ravishda tayyorlash, ularga zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalarni o'rgatish muhimdir. Bu o'qituvchilarga o'quvchilarni faollashtirish, kreativ fikrlashni rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, o'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha maxsus kurslar tashkil etilishi kerak.

Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga faol qo'llash o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va darslarni yanada interaktiv qiladi. Masalan, matematikada geometriya va algebra bo'yicha vizual simulyatsiyalar, onlayn matematik dasturlar va mobil ilovalar yordamida o'quvchilar darslarni osonroq o'zlashtirishi mumkin. Raqamli vositalar o'quvchilarga o'z bilimlarini mustahkamlash, masalalarni tez va samarali hal qilish imkonini beradi. Bularning barchasi ta'limda kreativ yondashuvlarning o'rni va ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi, shuningdek, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga va zamonaviy ta'lim tizimiga mos keladigan yondashuvlarni joriy etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Askarova Z.N. Uzluksiz ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining AKT kompetentligini shakllantirish. Maktabgacha va maktab ta'limi, 2025-yil, yanvar, 1-son, 553–556-betlar.
2. Askarova Z.N. Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ pedagogik yondashuvlar asosida AKT vositalaridan samarali foydalanishga tayyorlash. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2024, 34-son, 437–440-betlar.
3. Askarova Z.N. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik modellar va texnologiyalarni joriy etish. Pedagog Respublika Ilmiy jurnali, 2024, 7-tom, 11-son, 334–341-betlar.
4. Askarova Z.N. O'qituvchilarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida kreativ pedagogik metodlar bilan tayyorlash. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi Respublika Ilmiy-uslubiy jurnali, 2024, 7-jild, 11-son, 235–242-betlar.
5. Doe A., Johnson K. (2022). Creative Teaching Methods in STEM Education. International Journal of Educational Technologies, 34(3), 67–89.
6. Smith J. (2023). Innovations in Mathematical Education: A Global Perspective. Journal of Educational Research, 52(1), 23–45.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.